

Ayol ruhiyati talqinida mazmunning poetik vazifasi

Nasiba Qurbonboyeva¹

Abstrakt

Adabiyotda shakl va mazmun masalasining muhimligi xususida adabiyotshunos olimlar bir nechta tadqiqot ishlarini olib borganlar. Bu borada turli xil qarashlar mavjud. Jahon adabiyotshunosligida bu masalaga alohida yondashib, biri ikkinchisini mutlaqo taqozo etmaydi yoki biri ikkinchisiz mustaqil mavjud bo'la oladi, degan fikrlar ilgari surilgan. Bu fikrlar o'z isbotini topmagan hamda bir guruh olimlar shaklsiz mazmun, mazmunsiz shakl mavjud bo'la olmaydi, degan qarashlarni ilgari suradilar. Shu bilan birga, o'zbek adabiyotshunos olimlari ham bu masalaga chuqur yondashib, o'z fikr-mulohazalarini bayon etadilar. Shulardan kelib chiqqan holda, maqolada o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida shakl va mazmun masalasini o'rganish hamda ijodkor lirik kechinmalarini aniqlash masalasiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: *Halima Xudoyberdiyeva, shakl, mazmun, ruhiyat, kechinma, obraz, to'rtlik, she'r, ramz, lirik qahramon.*

Kirish

Adabiyotshunoslik ilmida mazmun va shakl borasida turli qarashlar mavjud. Ilm ahlining bir qismi mazmun shakldan ustun deya fikr bildirsalar, boshqa qismi shaklni bosh mezon sifatida baholaganlar. Har ikki yo'nalish tarafdorlarining tadqiqotlari badiiy asarda shakl va mazmunni bir-biridan ayri tarzda o'rganish samarasizligini isbotlab berdi. Zero, "asar shakli haqida fikr yuritayotgan tadqiqotchi uning mazmunni uyushtirish va ifodalash, ta'sirdorligiyu badiiy jozibasini oshirishdagi ahamiyatini; mazmun haqida fikr yuritganda uning shaklga qay darajada muvofiqligini nazardan qochirmasligi zarur bo'ladi" [Quronov 2018, 91].

Adabiyotshunos Izzat Sultonov asarning mazmuni haqida to'xtalar ekan, uning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagi jihatlarni sanab o'tadi: mazmunning salmoqdorligi, haqqoniyli-

¹ Qurbonboyeva Nasiba Aybek qizi – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

E-mail: nasiba.kurbanbayeva@inbox.ru

ORCID ID: 0009-0009-4322-5983.

Iqtibos uchun: Qurbonboyeva, N. 2024. "Ayol ruhiyati talqinida mazmunning poetik vazifasi". O'zbekiston: til va madaniyat 1(2): 68-80.

gi, universalligi, originalligi hamda ta'sirchanligi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov esa mazmun va shakl unsurlarini tasnif qilar ekan, jahon adabiyotshunoslarining tadqiqotlarini chuqur qiyosiy o'rganib, chiqargan xulosalari asosida quyidagicha tasnif yarata-di: problema, tema, tendensiya, g'oya – mazmun unsurlari; til, obrazlar sistemasi, syujet, konflikt, kompozitsiya, ritm – shakl unsurlari [Quronov 2018, 91].

Asosiy qism

Shakl va mazmunning o'zaro mukammal munosabati-ni ta'minlovchi unsurlardan biri sifatida sinchkovlik bilan tan-langan shakl hamda unga g'oyaviy jihatdan to'g'ri tanlangan mazmun birligini e'tirof etishimiz mumkin. Shu o'rinda Halima Xudoyberdiyevaning bir to'rtligini fikrimizning yanada oydinla-shishi uchun keltirib o'tsak:

Haqiqat qirda, tog'da ham suyumli,
Ochiqda ham, qamoqda ham suyumli.

Ichida – ko'zlarida muqim o't yonar

Sirti yirtiq, yamoqda ham suyumli [Xudoyberdiyeva 2020, 534].

Mazkur to'rtlikning nasriy bayoni quyidagicha: *Haqiqat qir-da ham, tog'da ham, ochiqda ham, qamoqda ham suyumli. Ichida, ko'zlarida o't yonsa-yu, sirti yirtiq, yamoq bo'lsa ham suyumli*. Biz o'qiganimiz har ikki variantning mohiyati ayni bir xil, faqat ifodala-nish shakli farqli. Biz she'r o'qiganimizda, odatda, misra ritmiga, in-tonatsiya, urg'uga e'tibor qilgan holda, ichki kechinmalar, tuyg'ular olamini yorqin ifoda etuvchi musiqiy matn o'laroq o'qiymiz. Nasr esa qofiya va vazndan holi oddiy nutq. Yuqoridagi misralarning she'riy shakli nasriga ko'ra ta'sirchan hamda jozibadordir. Yoki roman va hikoya janrlarini qiyoslaylik, biz romanning umumiy mazmuni-ni ixchamlashtirib, bir hikoya ko'rinishiga keltira olmaganimizdek, hikoyadagi voqealarni ham bir roman shaklida ko'ra olmaymiz, sababi har bir janrning o'ziga xos xususiyatlari hamda adabiy me'yorlari mavjud.

Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida lirik qahramon ba'zida go'dak, ba'zan bola, bir qarasangiz matonatli ayol, yana bir o'rinda esa jasoratli ona. Halima Xudoyberdiyeva – hassos shoira, Vatan madhini kuylab, xalq dardini o'ziniki qila olgan haqiqiy ijodkor. "She'r faqat xitob, nido, chaqiriq emas, u ayni choqda nola va faryod hamdir. Bir so'z bilan aytganda, she'riyat sokinlikni, loqaydlikni rad etuvchi, hech qanday qoliplarga sig'maydigan, erkinlik va adolat

g'oyalarini tarannum etuvchi isyon bo'lmog'i darkor" [Xudoyberdiyeva 1993,13]. Halima Xudoyberdiyevaning lirik qahramoni ham isyonkor hamda bir vaqtning o'zida sokin.

Yuragimga ona arslon qo'ygan in,
Parvardigor, ruhim o'zing ko'targin.

Dargohingda topshirguncha men jonni,
O'ldirmagil ko'ksimdagi arslonni.

O'rmalabmi kelayotir sokin xob,
Olloh, uni qaytarmoqning yo'lin top.

O'rmalabmi kelayotgan tulki, qush,
Balki menga rahmi kelar "boyaqish" [Xudoyberdiyeva 2020, 302].

"Asarda tasvirlangan hodisalar va ifodalangan g'oyalar uning mazmunini tashkil etadi. Mana shu ikki tomon, ya'ni aks etirilgan hodisalar va yozuvchi g'oyalari uzviy birikib ketgandagina, kitobxonning qalbini va ongni boyitadigan g'oyaviy mazmun vujudga keladi" [Xudoyberdiyeva 1995,32]. She'rning poetik g'oyasi bizga insoniylikdan, vatanparvarlikdan saboq beradi. Eng muqaddas insoniylik xususiyatlarini ulug'lash bilan bir qatorda eng chirkin, eng tuban kimsalarni tasvirlar ekan, shoira arslon, tulki, qush obrazlariga murojaat qiladi. Lirik qahramon pisib kelayotgan tulki, o'rmalab kelayotgan olchoqlarning qaddini ko'tarib iniga yo'l izlab, unga qasd qilishidan Allohdan panoh tilaydi. Shu o'rinda millatni qayg'uradigan, vatanini jonidan ustun ko'radigan shoira she'rining oxirgi misralarida asosiy leytmotiv yuksak maqomga yetkaziladi hamda teran mohiyat kasb etadi:

Ona arslon o'lmay turib, o'rmalab,
Bu o'rmonga kiradigan kas yo'qdir.

Yuragimga ona arslon qo'ygan in... [Xudoyberdiyeva 2020, 303].

"Halima she'rlarida endi inson hayoti va insonning o'zi butun murakkabligi, jamiki ziddiyatlari bilan namoyon bo'ladi. U inson sha'nini bulg'aydigan, uning baxtiga chang soladigan narsalarni keskin qoralaydi" [Xudoyberdiyeva 1993,16]. Uning bu o'tkinchi dunyodan hafsalasi pir bo'lgan. Axir, guldan baldoqlar taqqan jononlarning jonini bir siqim tuproq qilgan dunyo unga rahm qilarmidi!?

Boshimga urayinmi o'tar dunyo shonini,
O', kuygan o'tlarimda qaytadan kuyayinmi?
Guldan baldoqlar taqqan jononlarning jonini
Bir siqim tuproq qilgan dunyoni suyayinmi?

Mening karvonim horg'in, kunbotarga og'moqda,
Elas-elas kelmoqda qo'ng'iroqlar jarangi.
Garchand boshim ustida oy nurlari yog'moqda,
Holim shu qadar zabun, holim shu qadar tangki...

[Xudoyberdiyeva 2020, 313].

Lirik qahramon karvonining horg'inligi, uning kunbotarga qarab ketayotgani va elas-elas qo'ng'iroqlar jarangining eshitisli... Qo'ng'iroq timsol sifatida adabiyotda millatni uyg'otuvchi da'vat, karvon esa xalqqa ishora. Keyingi satrlarda shoira *oy nurlari yog'moqda* deya go'zal badiiy obraz yaratadi. Bu orqali ko'ngil va tabiat holatining uyg'unligi aks etadi.

Yo'q, ezg'in ko'nglimdayin yorishib borar osmon,
Yorug' osmon ostida, bolajonlar, ungaysiz!
Faqat... Bobur yig'lagan... "Bu jahonga sig'masmen",
Shundan u yo'q jahonga sig'ish goho o'ng'aysiz.

Boshimga urayinmi o'tar dunyo shonini... [Xudoyberdiyeva 2020, 313].

Ushbu banddagi *Yo'q, ezg'in ko'nglimdayin yorishib borar osmon* misrasi orqali lirik qahramonning ruhiy holati ochib berilgan. Shoira talmeh san'atidan ham o'rinli foydalangan va bu o'z navbatida tasvirning bo'yoqdorligini oshirish, badiiy jozibadorligini kuchaytirish hamda she'rning poetik mohiyatini, leytmotivini ochib berishga xizmat qilgan. Lirik qahramon siyrati insoniylikning yuksak xususiyatlari bilan shu qadar to'yintirilganki, u uchun Bobur yig'lagan, Bobur sig'magan bu jahonga sig'ish o'ng'aysiz. Kutilmaganda berilgan bu iqrar o'quvchini birdaniga xushyor torttiradi, yuragiga tezda etib boradi.

Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida har bir so'zni, iborani munosib o'rinda qo'llaydi. "Halima daryo bo'lib yozdi dedik. Chindan uning she'riyatidan qaysi davrda qay kayfiyatda yozgan bo'lmasin, daryoning ovozi eshilib turadi. Ikki daryo mamlakatimizning mahrami. O'zbekistonga hayot quvvalarini bag'ishlaydi. Halimada yurtning qizi bo'lish, yurtning qizi bo'lib yozish havasi erta uyg'ondi" [Xudoyberdiyeva 2012,6]. Shoiraning 70-yillarda yozilgan "Dorila-

mon kunar keldi...”, “O‘zimizning bog‘lar”, “Suyanch tog‘larim”, “Men shu tuproq kuychisiman” she‘rlari fikrimizning yorqin isbotidir. Halima Xudoyberdiyeva qaysi mavzuga qo‘l urmasin, uning asarlari-da haqiqiy o‘zbek ayolining nafosati, nazokati, ibosi, hayosi, orzu-istaklari va shu bilan birga, jasorat va shijoatni o‘zida namoyon etuvchi To‘marisning munosib izdoshi ekanligi yaqqol aks etadi. Shu o‘rinda shoiraning “Bu elni jimlar uyg‘otadir” she‘ri yuqoridagi fikrlarimiz uchun asos bo‘la oladi. Mazkur she‘rda lirik qahramonning Vatanini benihoya sevishi, vatandoshlarining loqaydligidan aziyat chekishi, ijtimoiy dardning shaxsiy dardga aylanishi ta‘sirchan ifodalangan:

Bu avlodlar g‘aribdan-g‘arib,
Ko‘kragingga toshlar botadir.
Olov topolmaysan axtarib,
Ko‘zlaringga yoshlar botadir.

Ko‘nglingda chang, gard ko‘tarsangmi,
Qiy nab gumon, dard ko‘tarsangmi,
Pardalarni shart ko‘tarsangmi,
Yalang‘ochlar, foshlar botadir.

Turib, qulab yotgan bek bekmi,
Ichib, “gullab” yotgan bek bekmi,
Borin pullab yotgan bek bekmi,
Fikrsiz, bo‘sh boshlar botadir [Xudoyberdiyeva 2020, 250].

Adabiyotshunos olim va yozuvchi Ulug‘bek Hamdamga ko‘ra, XX asrda o‘zbek she‘riyati badiiylilik darajasi nuqtayi nazaridan ikkiga ajralib qoldi. Birinchisi, davr muammolari san‘atkorona aks ettirilgan, ko‘pning dardi shoir dardiga, ijtimoiy dard – shaxs dardiga aylangan, shaxsiylashgan she‘riyat bo‘lsa, ikkinchisi esa davrga xos muammolar jamiyatda qanday o‘rin tutishi, qanchalik dolzarb ekanidan kelib chiqib, jamoatchilik e‘tiborini tortish maqsadida yozilgan, shu tufayli nazmbozlik va maddohlik mahsuli sifatida dunyoga kelgan she‘riyatdan iborat [Hamdam 2006, 42]. Halima Xudoyberdiyeva asarlari birinchi tasnifga xos bo‘lib, ijtimoiy dardni, xalq dardini o‘ziniki qilgan va shu asosda lirik qahramon fikr tadrijini ayni shunday yo‘nalishda aks ettiradi. Shoir lirik qahramon kechinmalarini ifodalar ekan, bugungi kun avlodlarining g‘aribdan-g‘arib, ko‘zlarida, yuragida olovi, shijoati yo‘qligidan ko‘kragiga toshlar botadi. Odatda, yosh avlod shijoatli, yuragidagi olovning aksi ko‘zlarida porlab turgan, tog‘ni talqon qilishga qodir jasorati suratida yaqqol namoyon bo‘lishi kerak emasmi!? Nega bu elning avlodlari g‘aribdan-

g'arib? Ular qanday odamlar? Ko'nglini chang, g'ubor bosgan, gumon va dard girdobida qiynalganlarki, pardalarni shart ko'tarsangiz qarabsizki, yalang'ochlar, foshlar. Shoir bu bilan nima demoqchi? Jamiyat va millatning zavoli bo'lmish, Vatanning ertasi bo'lgan avlodlarning kelajagini yo'qlikka va mavhumlikka mahkum etuvchi illat sifatida loqaydlikni ko'rsatadi. Xalqimizda bir gap bor, beparvo, loqayd odam dushmandan ham xavfliroq. Qulab yotgan, ichib, "gul-lab" yotgan, borini pullab yotgan "bek"lar, fikrsiz, bo'sh boshlar ham ayni shu loqaydlikning natijasidir.

Oh, bu elga kimlar qazdi choh,
Qaydandir bu sanoqsiz gumroh,
Bugun bir porloq quyosh yo'q, oh,
Moziyda... quyoshlar botadir.

Qay hofizga xudo –siym-u zar,
Qay shoiri xudobexabar,
Qay otinining botini g'ar,
Bu elni kimlar uyg'otadir?

Millatni ichdan yemiruvchi, jamiyat ravnaqiga raxna soluvchi illat bo'lmish loqaydlik haqida so'z borar ekan, shoir uning oqibatlarini adoqsiz qayg'u bilan ayovsiz tasvirlab beradi. Millatning buguni shu holga kelganidan g'amga botadi. Yurtida son-sanoqsiz gumrohlar to'lib ketganidan, bir porloq quyoshga ehtiyoj sezadi, umid bog'laydi. Lekin qarasaki, quyoshlar ham moziyda botgan. Shu o'rinda *Moziyda... quyoshlar botadir* misrasi beixtiyor Abdulla Qodiriy yodga soladi. Millat avlodlaridan xafsalasi pir bo'lgan ijodkor endilikda hofiz-u shoir, otinlarga yuzlanadi. Jamiyatda hofiz-u shoirlar diniy va dunyoviy bilimga ega, oqni qoradan ajratishga qodir bo'lgan kishilar hisoblanadi. Ular millatning ma'naviy xazinasini ko'z qorachig'idek asrab, uni yanada boyishiga o'z hissasini qo'shadi. Lirik qahramonning millatning ma'naviy tirgaklari bo'lmish ijod ahliga murojaat qilishi ham ayni shundan. Zero, Cho'lpon aytganidek, "Millatni uyg'otish – uyg'onganlarning vazifasi". Ammo bu elning uyg'oq kishilari ham g'aflatda ekanligi jamiyatning zavolga yuz tutganligidan dalolat beradi. Endilikda ijodkor asosiy ijtimoiy savolni o'rtaga tashlaydi: *Bu elni kimlar uyg'otadir?* She'rning kulminatsion nuqtasi aks etgan ushbu savolga ijodkor javob topishga urinadi.

Bobolari yurt so'rab to'rda,
Bolalari o'lgaymu yerda?
Inshoolloh, bugunmi-erta,

Bu elni jimlar uygʻotadir [Xudoyberdiyeva 2020, 250].

Shoira lirik qahramon ruhiyatidagi gʻalayonni, tizginsiz kechinmalarni oʻquvchiga shu qadar teran mushohadakorlik va bosiqlik bilan ifodalaydiki, dilni oʻrtovchi, davr kishilariga nisbatan nafrat tuygʻusini uygʻotuvchi, Vatanni jonidan aziz suyguvchi har bir kitob- xonning qalbini larzaga soluvchi *Bu elni kimlar uygʻotadir?* savoliga oʻzbek ayoliga xos nazokat va nafosat ila, bosiqlik bilan javob beradi. Jimlik bu akssiz, sadosiz sukunat. Ijodkor jimlar ortiga isyonni, bir kuni yurakdan qalqib chiqadigan ovozni yashiradi. Bu isyon, bu ovoz kun kelib sheʼrlarda, hikoya va romanlarda jaranglaydi. “Meditativ mushohadakorlik asosida paydo boʻlgan dunyo falsafasida zulm isyonni, zulmat yorugʻlikni, oʻlim hayotni tugʻadi degan olamshumul xulosa mavjud” [Ernazarova 2020, 185]. Halima Xudoyberdiyevaning “Bu elni jimlar uygʻotadir” sheʼrida xuddi shu falsafa oʻz aksini topgan.

Halima Xudoyberdiyeva ijodida turk, Turkiston, Turon mavzularida bitilgan sheʼrlari talaygina. Oʻzbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Ibrohim Gʻafurov Halima Xudoyberdiyeva ijodi haqida shunday degan edi, uning sheʼrlarida katta harf bilan yoziladigan MUHABBAT bir yoniq siymo, ONA yoniq bir siymo, OTA yoniq bir siymo – bu siymolarini topgach, u oʻz tugʻilgan yurtini, oʻzi mansub xalqni, uning fojia va sharaflarga toʻla bitmas-tuganmas tarixini tobora chuqurroq tushundi, bular uning yuragida jozibador sheʼriy siymoga aylandi. Halima Xudoyberdiyeva oʻzining shu siymolarini yorqin kashf etish orqali INSON siymosiga yaqinlashdi. Shu siymo timsolida u Inson qadr-qimmatini oʻzi uchun ochdi. Inson gʻoyasi uning koʻksi va ongida teran oʻrnashdi [Xudoyberdiyeva 2012, 5].

Dardin chetga chiqaradi qaysi sher,
Ona arslon ozganini bildirmas.
Nodon – “Taqqirni oʻzim yaratdim”, – der
Qodir Xudo yozganini bildirmas.

Sirtidan boqsang koʻngil ovlanaverar,
Shahd oldinga tashlar dovlanaverar,
Tovus ziynatlanar tovlanaverar,
Patlarining toʻzganini bildirmas [Xudoyberdiyeva 2020, 398].

Halima Xudoyberdiyeva sheʼrlarida sher, arslon, yoʻlbars obrazlarini juda koʻp marotaba uchratishimiz mumkin. Bu jonzoʻtlar hayvonot olamining eng kuchlilaridan. Shu boisdan ular oʻzidagi chorasizlikni atrofga bildirmaydi. Keyingi qatordagi diniy mazmun-

dagi misra e'tiqodiy qarashlar asosida taqdirning Alloh tomonidan bitilganini ifodalaydi. Xuddi ona arslon kabi inson ham ichki kechinmalarini, qalb tug'yonlarini, ko'ksini kemirayotgan g'am-anduhlarini zohirida aks ettirmaydi. Zero botiniy kechinmalar shaxsiydir. Milliy muhitda shakllangan, hayotning og'ir zarbalariga uchragan, urush hamda mustamlakalik zulmini boshidan kechirgan ijodkor "men"i keyingi bandda ijtimoiylashadi. Shu o'rinda aytish joizki, Sharq xalqlariga xos andisha misralar qatiga shu qadar singdiriladiki, davrning eng fojiali jarayonlarini ham bildirmaydi.

Yesir nonni qanday yetkazadi-yu,
Go'dagiga qanday tutqazadi-yu,
Yesir tunni qanday o'tkazadi-yu,
Yetim qanday o'sganini bildirmas.

Sharq bolasi, mayli yovqur yo daydi,
"Botir bo'lsang avval meni yeng", – deydi.
Avval oshiq bo'lgan menman, men!, – deydi,
Avval qiz ko'z suzganini bildirmas [Xudoyberdiyeva 2020, 398].

Ijodkor millat haqida qayg'uradi, yesirning ham, yetimning ham musibatini zo'r iztirob bilan anglaydi. Birinchi misrada ifodilangan mazmun, yesir ya'ni qulning qanday non topishi va go'dagiga qanday tutqazishi, keyingi misradagi yesir esa bevaning yolg'izlik iztiroblari, yetimning qanday o'sgani tasviridagi ifoda zalvori kishini larzaga soladi. Bu yirik musibatni, butun jamiyatning alam va iztiroblari, g'am-anduhlarini "bildirmas"lik esa ulkan jasoratdir. Millat, yurt qayg'usini o'zida mujassamlashtirgan lirik qahramon sharqona ma'naviyatni o'zida gavdalantirgan. Ijodkor yashagan davr, ijtimoiy muhit Sharq bolasining tarbiyasiga, o'zligiga raxna sololmagan. Mayli u yovqur yoki daydidir, lekin aslo nomard emas. U ma'shuqasi-ning avval ko'z suzganini bildirmaydi, aksincha, avval oshiq bo'lgan menman deya ta'kidlaydi va dushmanni kurashga chorlaydi. Ijodkor o'zbek o'g'lonining siyratini kichik syujetli voqelik asosida ko'rsatib bergan. She'rdagi so'zlarning to'g'ri tanlanganligi uning ta'sirchaligi hamda yurakka yetib borish darajasini oshirgan.

Sharq bolasi,
Yassaviyning bolasi.
Dunyolarni titratsa ham nolasi,
Undan faqat kamsuqumlik olasiz,
Otasidan o'zganini bildirmas [Xudoyberdiyeva 2020, 398].

Sharqda oilaviy munosabatlar masalasiga qadimdan jiddiy ahamiyat berib kelingan. Yirik mutafakkirlar Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojiblar bu xususida o'zlarining durdona fikrlarini asarlarida aks ettirganlar va ular hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. She'rdagi bola millatimizning boy va qadimiy an'analari, yuksak umuminsoniy qadriyatlari ruhida tarbiyalangan Sharq bolasi, Yassaviyning bolasi. Shu boisdan, garchi uning nolasi dunyolarni titratsa ham bildirmaydi. Uning tiynatida kamsuqumlik, kamtarlik, bilimlilik, insonparvarlik kabi fazilatlar namoyonki, u otasidan o'zganiga iymnadi, shu boisdan bildirmaydi.

Har bir narsa o'zaro juft yaratilgan va bunda teran hikmatlar bor. Kecha va kunduz, yaxshilik va yomonlik, gunoh va savob, latofat va qabohat va hokazo. Ma'ni va surat ham xuddi shunday juftlikni hosil qiladi va mohiyatan bir-biriga zid bo'lsa ham, biri ikkinchisiz mavjud bo'la olmaydi. Zohiran suratni inkor etishdek tuyulgan fikrlar asosiy e'tiborni ma'niga qaratish zarurligiga urg'u bermoq uchundir [Jabborov 2022, 77]. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda badiiy asar tahlilida shakl va mazmun masalasining nechog'lik muhim ekanligi Halima Xudoyberdiyeva asarlari orqali aniqlanadi.

Odam Ato zuryodlari yo'lga chiqar,
Momo Havo zuryodlari yo'lga chiqar,
Bor-yo'g'imiz suv yuziga, ko'lga chiqar,
Kelajakning yo'llarini supuramiz [Xudoyberdiyeva 2020, 364].

"Kelajak yo'llarini supuramiz" she'rida ayol ruhiyatining ramziy ifodasi, kelajak avlodning shakllanishi va ta'minlanishiga qo'shgan hissasi sifatida talqin qilinishi mumkin bo'lgan chuqur metafora taqdim etilgan. She'rning "Odam zuryodlari" va "Momo Havo avlodlari" haqida so'z yuritilgan birinchi misralari insoniyatning paydo bo'lishi haqidagi diniy rivoyatlarni yodimizga tushiradi. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, asar bir kishiga yoki bir millat vakillarigagina emas, balki butun insoniyatga daxldorligini anglashimiz mumkin.

Kelajak yo'llarini supurish metafora bo'lib, unda yo'llarni supurish ertangi kunni yanada yorqinroq qilishga intilish va bunga to'siq bo'ladigan har qanday kuchni bartaraf etish nazarda tutiladi. Shu nuqtayi nazardan, asarda onalik muhabbatini kelajak avlodning o'sishi va kamol topishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga yo'l ko'rsatuvchi va ruhlantiruvchi kuch sifatida talqin qilish mumkin.

Supuramiz yo'lda qor, qum qolmasin deb,
Har qadamda chalguvchi shum qolmasin deb,
Oyoqlardan toydirlar chim qolmasin deb,
Kelajakning yo'llarini supuramiz [Xudoyberdiyeva 2020,
364].

Band harakat bayoni bilan boshlanadi: "Supuramiz". Ushbu ishonchli bayon she'rning qolgan qismi uchun ohangni kuchaytirib, potentsial qiyinchiliklarni hal qilishda faol yondashuvni ko'rsatadi. "Biz" so'zi bu ishda birlik va umumiy mas'uliyat hissini bildiradi. "Yo'lda qor yoki qum bo'lmasligi uchun" supurish tasviri taraqqiyotga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan har qanday vosita yoki noaniqliklarni olib tashlash istagini anglatadi. Qor va qum shoironing oldinga aniq yo'l yaratishga bo'lgan qat'iyatini aks ettiruvchi qiyinchiliklar va chalg'ituvchi narsalarni ifodalaydi.

Keyingi satrlarda supurish harakati maqsadni kuchaytiradi. Ijodkor diqqatni jamlash ("Har qadamda chalg'imaslik uchun") va yo'llarni keraksiz vositalardan tozalash ("Oyoqlardan chim (ajriq) qolmasligi uchun") muhimligini ta'kidlaydi. "Kelajak yo'llarini supuramiz" so'nggi misrasi she'r mazmunining cho'qqisi bo'lib xizmat qiladi.

Biz yutsakda bolalarga tegmasin chang,
Bizga tegsin, tegar bo'lsa har qanday sang,
Egilsak-da, to'kilsak-da holimiz tang,
Kelajakning yo'llarini supuramiz [Xudoyberdiyeva 2020,
364].

Fidoyilik, jasorat va matonat kabi insoniy fazilatlar ufurib turgan misralarda ijodkor bir ona, u farzandlari uchun hamma narsaga tayyor. "Biz yutsak-da, bolalarga tegmasin chang" birinchi misrada ijodkor kelajak avlod oldidagi mas'uliyatini teran anglaydi. Shoira bolalarning ertangi kunini har xil salbiy ta'sirlardan himoya qilishni istaydi. Oqibati qanday bo'lishidan qat'i nazar, barcha qiyinchiliklarni qabul qilishga tayyor. Egilishlari, bukilishlari mumkin, ammo ular xavf-xatarlarga qaramay, davom etishga shay. Misralar sari yuksalib boruvchi mazmun ijodkor matonatini va qat'iyatini ifodalaydi. Yakuniy satr she'rning markaziy mavzusini yana bir bor tasdiqlaydi. Qiyinchiliklar va to'siqlarga qaramay, ertangi kun uchun yo'l ochish bo'yicha o'z missiyasida qat'iy qoladi. Bu chiziq ayol ruhiyatining qiyinchiliklarga chidamliligi va qat'iyatini yaqqol aks ettiradi.

Boshlarimiz omon, qattiq toshga do'nib,
Bor kirdikor nihon emas, foshga do'nib,

Farroshga do'nib, barchamiz farroshga do'nib,
Kelajakning yo'llarini supuramiz [Xudoyberdiyeva 2020,
364].

She'rning so'nggi bandida butun she'r davomida ifodalan-
gan qat'iyatlilik, birdamlik, jasorat va matonat mavzulariga yanada
ko'proq urg'u berilgan. Bu satrda barqarorlik va qat'iylik tuyg'usini
tasvirlash uchun metaforik tildan foydalanadi. Boshlari omon, qattiq
toshga do'ngan ijodkorning tuyg'ulariga bir razm solaylik. Xalqimiz-
da yoshi ulug'lar "Boshing toshdan bo'lsin", – deya duo qilishadi. Bu
chidam-bardoshli bo'l, zavol ko'rma ma'nolarini ifodalaydi. Shoir-
ning boshi esa qattiq toshga do'nib bo'lgan, demak u ko'rgan qiyin-
chiliklar ham oz emas. Shu o'rinda ijodkor boshimiz qattiq toshga
do'ngan ya'ni toshdek mustahkam deya ta'kidlab, cheksiz kuch por-
tretini chizadi.

Hech qanday yolg'on o'z haqiqatining pinjida qolmaydi, chun-
ki ular sir pardasini chetga surib, "Bor kirdikor sir emas, u fosh
bo'ldi", deb dadil e'lon qiladi. Barcha kirdikorlar fosh bo'ladi, yashirin
hech bir sir qolmaydi. Shu bilan birga, gardanida yolg'on bo'lmagani
holda, ular o'z kurashlariga ochiq va halollik bilan qarshi chiqishga
tayyor holatda ertangi kunga qadam tashlaydilar.

Farroshga do'nib, barchamiz farroshga do'nib, satri jamoaviy
birdamlik va hamjihatlik, mas'uliyat mavzusiga urg'u beradi. Ijod-
kor barchani atrofdagi dunyoni tozalash va yaxshilash uchun bir-
dam bo'lishga chorlaydi. Bu tenglikka asoslangan yondashuv muam-
molarni hal qilish va kelajakni shakllantirishda birlik va hamkorlik
muhimligini ta'kidlaydi.

Kelajakning yo'llarini supuramiz – har bandning oxirgi misra-
si. Misraning har bir band oxirida takrorlanishi asarning maqsadini
tasdiqlash hamda mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, she'rning so'nggi bandida qiyinchiliklar-
ni yengib o'tish va porloq kelajak qurishda qat'iyatlilik, oshkoralik,
jamoaviy harakat va faol tayyorgarlik muhimligi ta'kidlanadi. U bu-
tun she'rga singib ketgan birlik va qat'iyat ruhini o'zida mujassam
etgan. She'rda buyuk kelajakni yaratish va to'siqlarni yengib o'tishda
faol yondashuv kuchli aks ettirilgan. She'rning har bir bandi ushbu
nuqtaning turli jihatlariga urg'u beradi: chalg'itadigan narsalar va
yuklarni olib tashlashdan bolalarni himoya qilish va qiyinchiliklarni
qamrab olishgacha. She'rda yorqin kelajak sari yo'l ochishda hamji-
hatlik, matonat, jamoa mas'uliyati muhimligi ta'kidlangan. Umuman
olganda, u o'quvchilarni o'z taqdirini o'z zimmasiga olishga va ertan-
gi kunni yaratish yo'lida faol harakat qilishga undaydigan chorlov

bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida ayollik nafosati, nazokati bo'y ko'rsatadi. Shu nutqayi nazardan ijodkorning aksar asarlarini mutolaa qilganimizda bir onaning farzandiga bo'lgan mehr-muhabbati, g'amxo'rliqi, fidokorligi namoyon bo'ladi. U na-faqat o'z farzandlariga ona, balki butun millat farzandlari uchun qayg'uradi, ularning kelajagiga befarq bo'lolmaydi va shu bilan bir-ga ularni ham Vatan oldidagi burchini teran anglashga, ajdodlarga munosib avlod bo'lishga da'vat etadi.

Adabiyotlar

- Курунов, Д. 2018. Адабиёт назарияси асослари. Тошкент, Навоий университети. – Б. 91.
- Худойбердиева, Ҳ. 2020. Танланган асарлар. Тошкент, Шарқ. – Б. 534.
- Шарафиддинов О. Юракдаги аланга. Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. – 13-б.
- Худойбердиев, Э. 1995. Адабиётшуносликка кириш. Тошкент, Ўқитувчи. – Б. 32.
- Худойбердиева, Ҳ. 2012. Буюк қушлар (Сўзбоши муаллифи: Ғафуров И. Дарёнинг овози). Тошкент, Ўзбекистон. – Б. 6.
- Ҳамдам, Улуғбек. 2006. Бадий тафаккур тадрижи. Тошкент, Янги аср авлоди. – Б. 42.
- Эрназарова, Г.Ҳ. 2020. Ҳозирги ўзбек шеъриятининг медитатив табиати: Филол. Фанлари доктори (ДСс)... дисс. Тошкент, – Б. 185.
- Жабборов, Н. 2022. Англаким, сўз ўзга, маъни ўзгадур... Шарқ юлдузи. №12. – Б. 77-85.
- Нурбой, А. (2005). Маърифат нимадир? Жаҳолат надир?.

The poetic function of the content in the interpretation of the female psyche

Nasiba Kurbanbayeva¹

Abstract

Literary scholars have conducted several researches on the importance of form and content in literature. There are different views on this. In world literary studies, they approach this issue separately and put forward opinions that one does not require the other at all, or that one can exist independently without the other. These ideas have not been proven, and a group of scientists put forward the opinion that there can be no content without form, and no form without content. At the same time, Uzbek scholars of literature also deeply approach this issue and express their opinions. Based on this, the article focuses on the study of form and content in the poems of Halima Khudoyberdiyeva, one of the great representatives of Uzbek literature, and the issue of determining the lyrical experiences of the creator.

Key words: *Halima Khudoyberdiyeva, form, content, spirit, experience, image, quatrain, poem, symbol, lyrical hero.*

References

- Quronov, D. 2018. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent, Navoiy universiteti. – B. 91.
- Xudoyberdiyeva, H. 2020. Tanlangan asarlar. Toshkent, Sharq. – B. 534.
- Sharafiddinov O. Yurakdagi alanga. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993. – 13-b.
- Xudoyberdiyev, E. 1995. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, O'qituvchi. –B. 32.
- Xudoyberdiyeva, H. 2012. Buyuk qushlar (So'zboshi muallifi: G'afurov I. Daryoning ovozi). Toshkent, O'zbekiston. – B. 6.
- Hamdam, Ulug'bek. 2006. Badiiy tafakkur tadriji. Toshkent, Yangi asr avlodi. –B. 42.
- Ernazarova, G.H. 2020. Hozirgi o'zbek she'riyatining meditativ tabiati: Filol. Fanlari doktori (DSc)... diss. Toshkent, – B. 185.
- Jabborov, N. 2022. Anglakim, so'z o'zga, ma'ni o'zgapur... Sharq yulduzi. №12. – B. 77-85.
- Нурбой, А. (2005). Маърифат нимадир? Жаҳолат надир?.

¹ *Kurbanbayeva Nasiba Aybek qizi* – Doctoral student of Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

E-mail: nasiba.kurbanbayeva@inbox.ru

ORCID ID: 0009-0009-4322-5983.

For citation: Kurbanbayeva, N. 2024. "The poetic function of the content in the interpretation of the female psyche". *Uzbekistan: Language and Culture*. 1(2): 68-80.